

**QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2021.Fil.70.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

SHAHNISABZ DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

MAXANOVA FERUZA MAMARAJABOVNA

**MAQSUD SHAYXZODA SHE'RIYATI TILI SINONIMLARINING
LINGVOPOETIKASI**

10.00.01 – O'zbek tili

**FILOLOGIYA FANLARI bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Qarshi – 2025

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
филологическим наукам**

**Content of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD) on
philological sciences**

Маханова Феруза Мамаражабовна

Maqsud Shayxzoda she’riyati tili sinonimlarining lingvopoetikasi..... 5

Маханова Феруза Мамаражабовна

Лингвопоэтика синонимов языка поэзии Мақсуда Шейхзаде..... 25

Makhanova Feruza Mamarajabovna

Linguopoetics of synonyms in the language of Maqsud Shaykhzoda’s poetry ... 51

E’lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works 55

**QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2021.Fil.70.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

SHAHNISABZ DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

MAXANOVA FERUZA MAMARAJABOVNA

**MAQSUD SHAYXZODA SHE'RIYATI TILI SINONIMLARINING
LINGVOPOETIKASI**

10.00.01 – O'zbek tili

**FILOLOGIYA FANLARI bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Qarshi – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida №B2025.01.PhD/FiL5467 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Shahrisabz davlat pedagogika institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.qarshidu.uz) va “Ziyonet” Axborot ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Bobojanov Sharipboy Xudoshukirovich
filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Rasmiy opponentlar:

Jabborov Xo‘jamurod
filologiya fanlari doktori, professor

Gafforov Alisher Axmedovich
filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Buxoro davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Qarshi davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2021.Fil.70.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil “_____” _____ soat _____ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 180119, Qarshi sh., Qarshi-Shahrisabz shoh ko‘chasi, A. Avlloniy, 15-uy. Tel.: (+99875) 221-21-04; faks: (+99875) 220-02-10; e-mail: kasu_info@edu.uz). Qarshi davlat universiteti, Filologiya fakulteti faollar zali.

Dissertatsiya bilan Qarshi davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (____-raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 180119, Qarshi sh., Ko‘chabog‘ ko‘chasi 17-uy. Tel.: (+99875) 221-21-04).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil “_____” _____ kuni tarqatildi
(2025-yil “_____” _____ dagi _____ raqamli reyestr bayonnomasi).

G.X. Ernazarova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

N.K. Ochilov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

X. Jabborov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligida globallashuv davrida til tadqiqi oid yondashuvlar tubdan o'zgarib, til tizimini matn, nutq vaziyati kabi omillar bilan bog'liqlikda o'rganishga alohida e'tibor qaratib kelinmoqda. So'nggi yillarda olib borilgan tadqiqotlar natijasida tilda inson omili muammosini o'rganuvchi antroposentrik tilshunoslikning qator yo'nalishlari shakllanib, mustaqil rivojlana boshladi. Natijada fanlar integratsiyasiga aloqador lingvopoetika sohasida ulkan yutuqlar qo'lga kiritilmoqda. Buni badiiy asarlar tili bilan bog'liq muammolarning o'rta tashlanishi va olib borilayotgan ilmiy izlanishlar ko'rsatib turibdi.

Dunyo tilshunosligida badiiy asarlar tilini lingvopoetik nuqtayi nazardan ochib berish, unda qo'llangan til birliklarining yozuvchi yoki shoir kommunikativ maqsadi bilan bog'liq holda badiiy-estetik vazifa bajarish uchun xizmat qilishidagi o'ziga xos jihatlarini tadqiq etish ommalashdi. Natijada badiiy adabiyot tili, badiiy asar tilining o'ziga xos jihatlarini namoyon etuvchi, badiiylikni yuzaga keltiruchi til birliklarining poetik xizmatlarini aniqlash, estetik vazifa ortida turgan tilga xos qonuniyatlarni ochib berish, ayniqsa, sinonim birliklarning semantik ko'lami, tarkibi, strukturasi, sinonimiyada o'zlashma so'zlar tadqiqi masalasi lingvopoetikaning ustuvor vazifasiga aylandi. Shu jihatdan, tilning ajralmas qismi bo'lgan, nutqning jozibadorligini ta'minlovchi sinonim birliklar ijodkor tafakkuri, tasavvurlari va uni badiiy aks ettirishida, o'ziga xos jihatlarini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatimizda mustaqillik tufayli o'zbek tilshunosligi jadal rivojlanish bosqichiga ko'tarildi. Olib borilayotgan tadqiqotlar samarali ekanligiga qaramay, hali o'z yechimini kutayotgan bir qator muammolar mavjud. Ana shunday mavzulardan birini o'zbek va ozarbayjon xalqining sevimli farzandi, otashqalb shoir Maqsud Shayxzoda she'riyatida qo'llangan sinonimlarning lingvopoetik xususiyatlarini o'rganish tashkil etadi. "Bugungi globallashuv davrida har bir xalq, har qaysi mustaqil davlat o'z milliy manfaatlarini ta'minlash, bu borada, avvalo, o'z madaniyatini, azaliy qadriyatlarini, ona tilini asrab-avaylash va rivojlantirish masalasiga ustuvor ahamiyat qaratishi tabiiydir"¹. Shunday ekan, milliy tilimizni dunyoda ommalashgan zamonaviy tadqiq tamoyillari asosida chuqur o'rganish dolzarb vazifalardan biri sanaladi. Shulardan kelib chiqqan holda, Maqsud Shayxzoda she'riyatida mavjud sinonimlar, ularning lingvistik xususiyatlarini tadqiq etish esa mavzuning dolzarbligini ko'rsatadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850-son "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2020-yil 20-oktabrdagi PF-6084-son "Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022–2026-yillarga mo'ljallangan

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoni. "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida". "Xalq so'zi" gazetasi. – Toshkent, 2019-yil 21-oktabr. – № 218 (7448).

Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi farmonlari, 2017-yil 17-fevraldagi PQ–2789-son “Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2019-yil 4-oktabrdagi PQ–4479-son “O‘zbekiston Respublikasining “Davlat tili haqida”gi Qonuni qabul qilinganligining o‘ttiz yilligini keng nishonlash to‘g‘risida”gi qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 24-avgustdagi “Atoqli adiblar va mutafakkirlar ijodiy merosini yoshlar o‘rtasida targ‘ib qilish hamda Adiblar xiyobonidan samarali foydalanish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 502-sonli qarori ijrosini ta‘minlashda hamda boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu tadqiqot muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalar taraqqiyotining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Jahon tilshunosligida badiiy adabiyot tili, ijodkorning badiiy til vositalaridan mahoratli foydalanishi kabi tadqiqotlarda umumlingvistik muammolarga alohida e‘tibor qaratilgan. Ayniqsa, lingvopoetika sohasida turli ijodkorlarning asarlari tilini o‘rganishga bag‘ishlangan tadqiqotlar olib bordilar. Jumladan, John Dryden, A. Ulviy, rus va qardosh xalqlar tilshunosligida V.V. Vinogradov, V. Jirmunskiy, L.V. Sherba, A.I. Yefimov, M. Polyakov, G.O. Vinokur² kabi olimlar tadqiqotlari lingvopoetikaning yangi soha sifatida shakllanishiga hissa qo‘shgan bo‘lsa, M.K.Tadjiyev, Y.Qasimbeyli, X.Rza³ tadqiqotlarida Maqsud Shayxzoda asarlarining poetik va qisman lingvistik yo‘nalishiga doir izlanishlar olib borilgan.

O‘zbek tilshunosligida badiiy asar tili, uning o‘ziga xos xususiyatlari hamda badiiy matnlarda qo‘llangan leksik birliklar turli jihatdan tadqiq qilingan. Badiiy asarlar leksikasi tadqiqiga qiyosiy-tarixiy, statistik, lingvokulturologik va lingvopoetik yondashuvlar asosida qator tadqiqotlar amalga oshirilgan. Jumladan, Sharq xalqlari tarixini mukammal bilgan, jahon adabiyotining yetuk mutaxassisi bo‘lgan, mahalliy va xorij klassiklari vakillarining qiziqarli adabiy portretlarini yaratgan adib sifatida Maqsud Shayxzoda ijodini mustaqillikkacha bo‘lgan

² John D. Of Dramatic Poesy: An Essay. Int The Idea of Literature. The Foundations of English Criticism. – Moscow. Progress Publishers. 1979. – P. 4-1; Виноградов В.В. Стилистика. Теория поэтической речи. Поэтика. – Москва, 1963; Ефимов А.И. Стилистика художественной речи. – Москва, 1961; Шчерба Л.В. Избранные работы по русскому языку. – Москва, 1957; Поляков М. Вопросы поэтики и художественной семантики. – Москва, 1978; Винокур Г.О. О языке художественной литературы. – Москва, 1991; Qasimbəyli Y. Rəsul Rza və Maqsud Şeyxzadə poeziyada qoşa zirvə kimi (https://525.az/site/?name=xeber&news_id=119229#gsc.tab=0); Rza X. Məqsud Şeyxzadə. – Bakı: Bilik səmiyyəti, 1978. – 67 səh; Rza X. Məqsud Şeyxzadənin bədii yaradıcılığı. – Bakı: Elm, 1981. – 233 səh.; Улвий А. Мақсуд Шайхзоданинг адабий шахсияти ва меросининг адабий алоқаларда тутган ўрни // Сўз санъати журнали. 2018 йил 12 апрел; Абай Құнанбайұлы. Шығармаларының екі томдық толық жинағы. – Алматы: Жазушы, 2002. – 196 б.

³ Таджиев К. Творчество Максуда Шейхзаде. – Ташкент, 1984. – 136 с.

davrdan I. Gafurov, X. Alimdjanova, K. Kadirov, Y. Shomansurov, B.Y. Yariyev, A. Abdullayev, M. Zokirov⁴ va boshqalar tomonidan o'rganilgan.

Mustaqillik davri tilshunosligida ham muayyan bir ijodkorning tildan foydalanish mahorati, yozuvchining u yoki bu til sathi birliklarini qo'llashdagi o'ziga xosliklarini aniqlashga bag'ishlangan ayrim tadqiqotlar mavjud. Maqsud Shayxzoda ijodini tilshunoslik yo'nalishida N. Mahmudov, A. Iskandarova, M. Ikromova, G. Norova, F. Ma'murova va D. Obidjonov⁵larning tadqiqotlarida muayyan darajada fikr bildirilgan bo'lsa-da, ammo adib she'riyatida qo'llangan sinonimlarning lingvopoetik jihatlari monografik planda tizimli o'rganilmagan.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilayotgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejaları bilan bog'liqligi. Tadqiqot Shahrizabz davlat pedagogika institutining "O'zbek tili va adabiyotining zamonaviy metodikasini yaratish muammolari" mavzusidagi tadqiqot rejasi asosida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Maqsud Shayxzoda she'riyatida qo'llangan sinonimlarning lingvopoetik xususiyatlarini aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Maqsud Shayxzoda she'riyatidagi sinonimlarning semantik maydonini aniqlash va sistemalashtirish;

adib she'rlardagi sinonimlarning kontekstual ma'nolarini tahlil qilish;

shoir ijodida sinonimlarning individual qo'llanilish xususiyatlari aniqlash va ular yordamida qahramonlarning psixologik holatini ochib berish;

sinonimlarning stilistik funksiyalarini va ularning she'r ekspressivligiga ta'sirini tahlil qilish;

⁴ Гафуров И. Лирика и время (Идейно-художественные особенности лирики Максуда Шейхзаде): Автореф. дисс. ...канд. филол. наук – Ташкент, 1973; Алимджанова Х. Творческий замысел и образ (на материале поэтического творчества Шейхзаде, Зульфийи, Миртемира): Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. – Ташкент, 1974; Кадыров К. Традиции фольклора в поэзии Максуда Шейхзаде: Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. – Ташкент, 1973; Шомансуров Ю. Роль научного мышления в реалистическом отображении действительности: Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. – Ташкент, 1973; Яриев Б.Я. Язык поэзии Максуда Шейхзаде: Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. – Ташкент, 1979; Абдуллаев А. Литературно-критические взгляды Максуда Шейхзаде: Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. – Ташкент, 1981; Зокиров М. Максуд Шайхзода (адабий-танцидий очерк). – Тошкент, 1969; Олимжонова Х. Фикр торлари (Атокли ўзбек шоири М. Шайхзода туғилган куннинг 60 йиллигига). – Тошкент, 1968; Шомансур Ю. Шайхзода – бунёдкор шоир. (Ўзбек шеърятинда анъана ва новаторлик масалалари). – Тошкент, 1972; Жалолов Т. Гўзаллик оламида. Танланган асарлар. Мақолалар. Адабий тадқиқотлар. – Тошкент, 1979; Шарафиддинов О. Биринчи мўъжиза. Адабий-танкидий мақолалар. – Тошкент, 1979; Иброғимова С. Лирик меъмуарлар. – В научных трудах ТашГПИ им. Низами. Т. 124. – Ташкент, 1975; Абдуллаев О. Шеърятнинг тиниқ осмони. – Тошкент, 1979; Мақсуд Шайхзоданинг илмий меросига доир. – Гулистон, 1980. – № 2; Гауров И. Горизонты поэтической мысли. – В кн.: Мақсуд Шейхзаде. Избранные произведения. В двух томах. – Ташкент, 1978; Тўрабоев Т. Мақсуд Шайхзода иждо лабораториясини ўрганишда шоир кутубхонасининг роли. Адабий мерос, 1980, № 4; Мамажонов С. Сайланма. Адабий танкидий мақолалар. – Тошкент, 1981; Юнусов М. Ҳаёт нафаси. Адабий-танкидий мақолалар. – Тошкент, 1982; Иброҳимов М. Шайхзода – балладанавис. – Шарқ юлдузи, 1974. – № 5. – Б. 209-219.

⁵ Mahmudov N. So'z shayxining mo'jizalari // "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasining 2009-yil 7-soni; Iskandarova A. Maqsud Shayxzoda tadqiqotlarida Alisher Navoiy siyrati. Журнал иностранных языков и лингвистики, 5(5). извлечено от <https://phys-tech.jdpu.uz/index.php/fll/article/view/7966>; Ikromova M. Dramatik matnda tarixiy koloritni ifodalovchi onomastik birliklarning lingvopoetik tahlili // Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar. 2024 йил № 5; Norova G. Maqsud Shayxzoda adabiy merosining til xususiyatlari // O'zbekiston: til va madaniyat. Amaliy filologiya masalalari. 1(5): 138-146; Ma'murova F., Obidjonov D. Описание Максуда Шайхзоды // Ilm-fan va innovatsiya ilmiy-amaliy konferensiyasi in-academy.uz/index.php/si.

tadqiqot natijalari asosida Maqsud Shayxzoda she'riyati tili sinonimlarining lingvopoetik xususiyatlarini umumlashtirish.

Tadqiqot obyekti sifatida Maqsud Shayxzodaning “O‘n besh yilning daftari”, “Olqishlarim”, “Zamon torlari”, “Shu‘la”, “Chorak asr devoni”, “Dunyo” she'riy to‘plamlari hamda “Tanlangan asarlari” olingan.

Tadqiqotning predmetini Maqsud Shayxzoda she'riyatida qo‘llangan sinonimlarning lingvopoetik xususiyatlari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot mavzusini yoritishda tavsiflash, tasniflash, leksik-semantik, kontekstual, stilistik tahlil usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Maqsud Shayxzoda she'riyatidagi sinonimlarning semantik maydoni tizimli ravishda tahlil qilinib, ularning leksik-semantik xususiyatlari, ma'noviy differentsiatsiya darajalari va semantik komponentlarining o‘ziga xos taqsimoti, sinonimlarning badiiy ifoda vositasi sifatidagi funksiyalari dalillandi;

shoir ijodida sinonimlarning individual qo‘llanilish xususiyatlari – dominant sinonimlardan chekinish, passiv leksik qatlamga mansub so‘zlardan foydalanish, okkazional sinonimlar yaratish kabi jihatlar, shoirning sinonimlarni tanlashdagi mahorati – kontekstga mos kelish, semantik nozikliklarni ifodalash, emotsional gradatsiya yaratish prinsiplarida namoyon bo‘lishi, sinonimlar yordamida qahramonlarning psixologik holatini, ichki monologlarini, ruhiy transformatsiyalarini ifodalash usullarining ko‘p bosqichli mexanizmi ochib berildi;

sinonimlarning ma'noviy funksiyalari – denotativ, konnotativ va assotsiativ ma'no qatlamlarining o‘zaro ta'siri, stilistik funksiyalari – uslubiy differentsiatsiya, register tanlash, badiiy kolorit yaratish kabi jihatlar; kontekstual sinonimlarning yuzaga kelish mexanizmlari, ularning leksik sinonimlardan farqlovchi xususiyatlari va badiiy tasvirni boyitishdagi o‘ziga xos imkoniyatlari tahlil qilindi;

sinonimlarning obrazlilik yaratishdagi mexanizmlari – konkretan mavhuma, mavhumdan konkretga o‘tish, sinesteziya, antropomorfizm kabi usullar orqali badiiy tasvirni kuchaytirish imkoniyatlari; emotsionallik va ekspressivlik yaratishda gradual taqsimoti, emotsional kuchayish va susayish effektlari, psixologik ta'sir hamda badiiy obraz xarakterini yoritishda, madaniy qadriyatlarni aks ettirishda milliy til boyligini saqlash va rivojlantirish funksiyalari, lingvokulturologik ma'nolarni ifodalash imkoniyatlari ochib berildi.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Maqsud Shayxzoda she'riyatida sinonimlarning lingvopoetik xususiyatlari asosida tahlil qilish natijasida she'riyatda obrazlilikni yaratish va badiiy tasvirni kuchaytirishda sinonimlarning beqiyos roli aniqlandi hamda bu asosda o‘zbek tili leksikologiyasida sinonimiya va sinonimik munosabat masalalarini yangicha yechish, o‘zbek tili sinonimlarining lug‘atini yaratishda fundamental asos bo‘lib xizmat qiladi;

sinonimlarning semantik strukturasi, lug‘aviy qatlamlari hamda funksional-stilistik xususiyatlarini o‘rganishda dissertatsiya materiallaridan muhim manba

sifatida foydalanish imkoniyati yaratildi va bu orqali zamonaviy leksikografik tadqiqotlar uchun amaliy yo‘nalishlar belgilandi;

zamonaviy tilshunoslikning yangi paradigmasi – antroposentrik yo‘nalishning pragmatika va lingvokulturologiya kabi tarmoqlarini rivojlantirish, nutqning kommunikativ sifatlarini ta‘minlash mexanizmlarini ishlab chiqishga doir uslubiy va o‘quv qo‘llanmalar, monografiyalar yaratishda nazariy va amaliy boyitilish uchun ilmiy asos tayyorlandi;

milliy-madaniy qadriyatlarni saqlash va targ‘ib qilishda sinonimlarning rolini ochib berish orqali o‘zbek she‘riyatini chet tillarga tarjima qilish jarayonida kontekstual va pragmatik ma‘nolarni to‘g‘ri yetkazish, milliy kolorit va badiiy ta‘sirni saqlash bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi nazariy ma‘lumotlarning ilmiy manbalardan olinganligi, qo‘llanilgan tahlil usullari, tahlilga tortilgan katta hajmdagi faktik material va nazariy fikr, xulosalarning amaliyotga joriy etilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati quyidagilardan iborat:

Tadqiqot natijalarining **ilmiy ahamiyati** tilshunoslikning yangi yo‘nalishlari, xususan, lingvopragmatika, lingvokulturologiya va lingvopetikaning nazariy asoslarini o‘rganishda, sinonimlar lug‘atini takomillashtirishda, sinonimlarning o‘ziga xos xususiyatlarini tadqiq etishdagi ahamiyatini yoritishda, qiyosiy tadqiqot usullaridan foydalanishda, tadqiq manbalarini aniqlashda, leksik va kontekstual sinonimlarning leksik-grammatik qiymatini, o‘zaro munosabati talqinini belgilashda ko‘rinadi.

Tadqiqot natijalarining **amaliy ahamiyati** shundan iboratki, keltirilgan tahlillar, mavjud materiallar o‘zbek tilshunosligi istiqboli uchun, qolaversa, ta‘limning barcha bo‘g‘ini, xususan, oliy ta‘limdagi “O‘zbek tili tarixi”, “Semasiologiya”, “Nutq madaniyati” va “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” o‘quv kurslarini takomillashtirishda, “Badiiy asar tili”, “Lingvokulturologiya”, “Leksikologiya”, “Stilistikasi” o‘quv kurslari, o‘rta ta‘lim “Ona tili” o‘quv predmeti bo‘yicha ma‘ruza matnlari, darslik, o‘quv va uslubiy qo‘llanmalari tuzishda, o‘quv-uslubiy majmualar tayyorlashda keng foydalanishda, tilshunoslik bo‘yicha yangi – antroposentrik paradigmaning pragmatika va lingvokulturologiya kabi yo‘nalishlarini rivojlantirishda, lug‘atlar tuzishda, nutqning kommunikativ sifatlarini ta‘minlash mexanizmlarini ishlab chiqishga doir uslubiy va o‘quv qo‘llanmalar, monografiyalar yaratishda, yangi tadqiqotlarning nazariy va amaliy boyitilishida xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Maqsud Shayxzoda she‘riyati tili sinonimlarining lingvopoetikasi tadqiq etilishi bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

Maqsud Shayxzoda she‘riyatida qo‘llanilgan so‘z va iboralarning semantik maydoni, ularning badiiy ifoda vositasi sifatida qo‘llanilishi, shuningdek, she‘rlarning estetik ta‘sirini shakllantirishdagi sintaktik qurilmalarning o‘rni va ularning badiiy asar yaratishdagi ahamiyati ochib berilganligiga oid xulosalaridan

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida 2021–2023-yillarda amalga oshirilgan AM-FZ-201908172-raqamli “O‘zbek tilining ta’limiy korpusini yaratish” mavzusidagi amaliy loyihani amalga oshirishda foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining 2024-yil 21-dekabrda 01-4052-sonli ma’lumotnomasi). Natijada o‘zbek tilining ta’limiy korpusi yaratish loyihasida Maqsud Shayxzoda she’riyatining leksik-semantik xususiyatlari va sinonimlarning lingvopoetik funksiyalari bo‘yicha to‘plangan materiallar korpusning she’riy matn qismi uchun muhim lingvistik ma’lumotlar bazasini tashkil etdi, bu esa korpusda badiiy nutqning o‘ziga xos xususiyatlari, she’riy tilning semantik maydonlari va sinonimik munosabatlarning namoyish etilishini ta’minladi.

Maqsud Shayxzoda ijodining sinonimik qatorlardan foydalanishning individual xususiyatlari aniqlanib, ular yordamida ma’noning nozik qirralarini ochib berishi, qahramonlarning his-tuyg‘ularini va ichki kechinmalarini ifodalashi, badiiy obrazlarni yaratishi va she’rlarining ta’sirchanligini oshirishi aniqlanganligiga oid ilmiy xulosalardan 2022–2024-yillarda “O‘zbekiston Davlat Musiqa va san’at o‘quv muassasalari uchun “Bolalar raqslari” fanidan interaktiv o‘quv qo‘llanmalar yaratish” mavzusidagi F3-2019081773-raqamli fundamental loyihani bajarishda, xususan, “O‘zbek bolalar raqslari, raqs liboslari va taqinchoqlari nomlarining o‘zbekcha-ruscha-inglizcha-fransuzcha qisqacha izohli lug‘ati”ni yaratishda foydalanilgan (O‘zbekiston Davlat xoreografiya akademiyasining 2025-yil 5-maydagi 1/04-224-sonli ma’lumotnomasi). Natijada o‘zbek bolalar raqslari, raqs liboslari va taqinchoqlari nomlarining ko‘p tilli lug‘atini yaratishda sinonimik qatorlarning semantik xususiyatlari va ma’no nozikliklarini ochib berish prinsiplari qo‘llanildi, bu esa raqs terminologiyasining turli tillardagi muqobililarini topish, milliy-madaniy konnotatsiyalarni saqlash va har bir tilning o‘ziga xos ifoda imkoniyatlarini hisobga olgan holda aniq va tushunarli tarjimalar yaratish imkonini berdi.

Shayxzoda she’riyatida sinonimlarning ma’no va stilistik funksiyalari, pragmatik talqini va kontekstual sinonimlarning badiiy tasvirni yuzaga keltirishdagi ahamiyati, badiiy tasvirni boyitishdagi o‘rni ochib berilganligiga oid ilmiy xulosalardan Qashqadaryo viloyati teleradiokanali “Fayzli kun” dasturining ssenariysini yozishda foydalanildi hamda “Oltin voha” radiosining 2025-yil 25-martda “Ochiq muloqot” radioeshittirishida efirga uzatildi (O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi Qashqadaryo viloyati teleradiokanali DM 2025-yil 28-martdagi 1705/54-son ma’lumotnomasi). Natijada O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan ilgari surilgan besh muhim tashabbusni qo‘llab-quvvatlash, hayotga tatbiq etish, shuningdek, yoshlarning kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirishga xizmat qildi.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 3 ta ilmiy-amaliy anjumanlarda, shu jumladan, 2 ta xalqaro, 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 16 ta ilmiy ish chop etilgan. Shundan 4 tasi O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda, 3 tasi xorijiy ilmiy jurnallar va to'plamlarda hamda 9 tasi xalqaro va respublikada miqyosidagi konferensiyalarda e'lon qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovadan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 130 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, uning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, metodlari tavsiflangan, tadqiqot obyekti, predmeti aniqlangan, ishning ilmiy yangiligi, olingan natijalarning ishonchligi, ilmiy-amaliy ahamiyati asoslab berilgan, tadqiqot natijalarni amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi "**Maqsud Shayxzoda she'riyatining leksik-semantik xususiyatlari**" deb nomlangan. Bobning "*Maqsud Shayxzoda she'rlarining lingvopoetik xususiyatini ta'minlashga xizmat qiladigan leksik-semantik birliklar*" mavzusidagi birinchi faslida adib she'riyatining lingvopoetik xususiyatlarini ta'minlashga xizmat qiluvchi leksik-semantik birliklar va ularning badiiy ahamiyati borasida fikr yuritiladi. Badiiy asarlarning lingvistik, lingvopoetik xususiyatlarini o'rganish, tadqiq etish va tahlil qilish zamonaviy tilshunoslikning muhim, dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi. Chunki har bir davr adabiy tilining xususiyati ijodkorlarning mahorati asosida shakllantiriladi. Maqsud Shayxzoda she'rlarining lingvopoetik xususiyatini ta'minlashga xizmat qiladigan leksik-semantik birliklar orqali she'rlarining shakli rang-barangligini ta'minlashga xizmat qilishi, fikrlaridagi jo'shqinlikning aks etishi adib she'rlari asosida tasvirlangan. Shoir she'riyatida leksik-stilistik va frazeologik, didaktik, turg'un hamda erkin o'xshatishlar hech qaysi shoirga o'xshamagan tashbehlarning mavjudligi, dunyoni badiiy obrazlar orqali gavdalantira olishi lingvopoetik xususiyatini yanada yorqin tasvirlagan. Adibning asarlarida qo'llanilgan shoirona tasviriy ifodalar o'zining konnotativ ma'nosi bilan she'rning ohangdorligini ta'minlash bilan bir qatorda, til birliklari semantikasiga uzual va okkazional ravishda kiradigan, nutq subyekting borliqni jumlada ifodalashida uning ayni shu borliqqa bo'lgan hissiy baholash va stilistik munosabatini ifodalaydigan hamda shu axborotga ko'ra ekspressiv baho kasb etadigan mazmuniy mohiyat uchun xizmat qilgan.

Maqsud Shayxzoda ijodida sinonimlarning turli shakllari lingvopoetik maqsadni amalga oshirish uchun qo'llangan. Bu kabi sinonimlarning esa o'z funksiyasi mavjud bo'lib, ekspressiv vazifasi, stilistik xususiyati va turli semantik

ma'nolarini ifodalashiga xizmat qilgan. Adib ijodida qo'llanilgan kontekstual sinonimlarning badiiy tasvirni yuqori darajada ifodalashga, takrorning oldini olishga hamda ifodaning betakrorligiga hissa qo'shishga asos bo'lgan.

Ijodkor asarlarida polisemantik birliklarning tilda mohirona qo'llanishi nutqimizning ifoda imkoniyatlarini kengaytiradigan hamda ta'minlaydigan leksik vosita sifatida xizmat qiladi. Adib she'rlarida insoniylik tushunchasidan yiroqlashgan, insoniy tuyg'ularni tushunmaydigan, mustamlakachi fashistlarga bo'lgan munosabat polisemantik birliklar orqali aks etib, *nafrat, sevgi, ayriliq, visol, go'zallik, qahr, mehr, vijdon, tabassum* kabi mavzularni lingvopoetik xususiyatini asosli yoritadi.

Ijodkor she'rlarida qo'llangan istorizmlar ham shunchaki qo'llanilmagan. "O'zbek tilining izohli lug'ati"da *paranji* etnografik termini, ko'pchilik musulmon ayollar begona erkaklarga ochiq ko'rinmaslik uchun boshga yopinib yuradigan, bichimi keng va uzun to'n shaklidagi, yengli yoping'ich (yuz chachvon bilan berkitiladi) ma'nosini anglatishi qayd etilgan. Adib she'rlarida *kunning yorishib kelishi, tunning chekinishi, quyoshning nur tarata boshlaydigan vaqtini va uning tun qorong'usini (paranjisini) yengib chiqib kelishini* shoirona tasvirlar bilan lingvopoetik xususiyatlarini tasvirlaydi. Har qanday arxaik va etnografik leksemalar shoir davri uchun faol va nofaol leksema bo'lishidan qat'iy nazar uni o'z ma'nosidan boshqa ma'noda qo'llashi poetik vazifa bajarishga xizmat qilishidan darak bergan.

Ijodkorlar she'riy ijod jarayonida shunchaki yoki badiiy zarurat tufayli dialekt leksikasidan foydalanishlari kuzatiladi. Shevaga xos so'zlarning ishlatilishi "badiiy nutqda muayyan estetik funksiyani bajaradi. Biroq dialektizmlarning estetik qimmat kasb etishi ularning badiiy nutqdagi me'yori, qanday ishlatilishini va ayni paytda qanday dialektizmlarning qo'llanishi bilan bog'liqdir"⁶. Darvoqe, Shayxzoda ijodida ham dialektizmlarning fonetik, leksik va grammatik xususiyatlariga guvoh bo'lishimiz mumkin.

*Quzg'unlar, ilonlar uchun bo'lmas yem,
Lochinga kalxatlar bo'lolurmi teng?*

Mazkur misrada *bo'la olurmi* ko'makchi fe'lli so'z qo'shilmasi eliziyaning birinchi ko'rinishi, ya'ni unli bilan tugagan so'zga unli bilan boshlangan so'zning qo'shilishi natijasida bir tovushning tushish hodisasi yuz berib (*bo'lolurmi*), she'riy matn yuzaga kelishiga xizmat qilgan. Adib she'riyatida har bir lingvistik hodisani poetik ruh uchun qo'llash so'zlarning semantik va uslubiy xususiyatlarini ta'minlashga xizmat qilgan.

Bobning ikkinchi fasli "*Maqsud Shayxzoda she'rlarining lingvopoetik xususiyatlariga xizmat qiladigan morfologik vositalar*" deb nomlangan. Morfologik vositalar she'riy shaklning tasviriyligini, ifodaliligini, ritmning o'ynoqiligi hamda bir maromda borishini ta'minlashga, tarixiy so'zshakllarning ifodalanishiga, qolaversa, uning tili, uslubi va badiiy uslublarini shakllantirish imkonini beradi. Bu esa ijodkor asarlarining lingvopoetik xususiyatlarini yaratishda hal qiluvchi rol

⁶ Абдурахмонов Х., Махмудов Н. Сўз эстетикаси. – Тошкент: Фан, 1981. – Б. 24.

o'ynaydi. Maqsud Shayxzoda o'z she'rlarida har bir so'z turkumining o'ziga xos xususiyatlaridan foydalanib, matndagi turli ma'no nozikliklari hamda tasvirning badiiyligini oshirishga xizmat qilgan. Morfologik birliklarning estetik vazifasi maxsus so'z formalari vositasida, ma'lum bir grammatik ma'no va funksiyaga ega bo'lgan so'z formasini maxsus qo'llash orqali ekspressivlik-emotsionallik ifodalanishini ta'minlagan. Albatta, bunga har bir turkumning uslubiy xususiyatlarini, grammatik shakllarini matnga moslab ishlatishi, mazkur qo'llanishlarning maqsadli ishlatilishi asar tilining lingvopoetik xususiyatlarini belgilashga xizmat qilgan.

Adib she'rlaridagi sarlavhalar o'ziga xos poetik imkoniyatni ta'minlab bergan, ijodkor asarlarining aksariyati ot so'z turkumi (aniq va atoqli otlardan), turli so'z birikmalari shaklidan (boshqaruv, moslashuv, bitishuv), ba'zi o'rinlarda harakat nomi, maqsadiga qarab boshqa so'z turkumlaridan hamda ritorik so'roq gaplardan foydalangan. Bu shunchaki maqsadsiz emas, tartibsiz emas, aniq rejalashtirilgan, estetik vazifa uchun xizmat qiladigan, xulosasida fikr ifodalash uchun xizmat qiladigan sarlavhalar hisoblanadi. Mazkur she'r sarlavhasining o'zidayoq *qat'iylilik*, *shijoat*, *chorlov* va *ildamlilik* ma'nolari sezilib turadi. Misralarda *uchun* ko'makchisining belgili va belgisiz shaklida ishlatilishi "*qat'iylikka undash*", "*erkka undash*", "*chorlash*", "*eslatish*", "*bo'ysunmaslik*", "*hujumkorlik*" ma'nolarini anglata olgan.

Bugungi zamonaviy tilshunoslikda lingvokognitologiya va lingvokonseptologiya insonlarning ichki dunyosini, ruhini va hissiyotlarini o'rganishga doir dolzarb tadqiqotlar ustida ish olib bormoqda. Albatta, har bir tadqiqot tildagi leksik, grammatik va sintaktik vositalar qo'llanish o'rniga qarab belgilanadi. Xuddi shunday vositalar orqali adib she'rlarining sarlavhalarida buyruq fe'llaridan unumli foydalangan holda davr nigohini o'zida aks ettira olgan. Buyruq maylidagi fe'llar orqali *vatanga*, *yorga*, *do'st-u birodarlarga sodiqlik*, *sog'inch* va *sevgilisi bilan xayrlashuv* jarayonlarini aks ettirgan. Ma'lumki, fe'l so'z turkumi harakat va holatning dinamikasini bildirib, nutq vaziyatiga xos voqea-hodisani ifodalab beradi. Adib asarlarida buyruq maylidagi fe'llarning ifodalanishi shaxslarning harakatini va idrokini aks ettirishga xizmat qilgan. Buyruq-istak maylidagi yashirin *gin* qo'shimchali shakllar poetik matnning nasriy matndan asosiy farqlaridan biri ekanligini aks ettirishga xizmat qilgan. Oddiy so'z va birikmalar "lingvistik manzara" kashf eta oladi.

Badiiy matnda konseptual mazmuni ochish va individuallikni birlashtirish, ta'minlash jarayoni sifat so'z turkumida ham o'zgacha ro'y beradi. Sifat so'z turkumi she'riy matnda yorqin va mubolag'ali tasvirlarni yaratgan, matnga hissiy rangni bergan. Ayniqsa, sifat darajalarining qo'llanish jarayonida bunga yaqqol namoyon bo'lish mumkin. Bilamizki, sifat darajalarini an'anaviy hosil qilishning uch xil usuli bor: fonetik, grammatik va leksik. Leksik usulda daraja hosil qilishda sifat so'z turkumidan oldin *liq*, *jiqqa*, *g'irt*, *g'oyat*, *bag'oyatda*, *nihoyatda*, *eng*, *tim*, *juda* kabi birliklardan foydalanib tuziladi. Maqsud Shayxzoda she'rlarida ham grammatik ham leksik usul yordamida sifatning orttirma darajasini hosil qilishning

an'anaviy usulidan chekinib, yangicha tasvir usulini qo'llaydi. *Toza* va *shaffof* sifatlaridan oldin kelgan *shuncha* va *shunchalik* so'zlarining semantik tarkibida "miqdor" semasi mavjud bo'lib, ilmiy adabiyotlarda bu so'zlar orttirma darajani hosil qiluvchi sifatida ta'riflanmaydi, biroq nutqimizda juda faol tarzda orttirma darajani shakllantirishga xizmat qiladi. Bu badiiy matnning ikki xususiyatini shakllantirgan: birinchidan, badiiy pafos va she'riy usul uchun; ikkinchidan, tilimizda bir so'zning "miqdor" ma'nosini boshqa so'zda ham aks ettirish ma'nosi, ya'ni sifatning sifatlovchisi.

Shayxzoda o'z she'rlarida har bir so'z va grammatik vositadan unumli va o'z o'rnida foydalanib, badiiylik kasb etishiga erishgan. Shoirning she'rlarida nutqiy yasama so'zlar bisyor uchraydi. Masalan, "*kattakon*", "*ustakor*", "*jomakor*", "*vafokor*", "*asabiyat*", "*jangiy*", "*mehnatdosh*", "*xusundor*", "*odamxo'r*", "*bego'r*", "*olovlan*", "*yashinvori*", "*dilpora*", "*yakpora*", "*yettilik*", "*mehvarsimon*", "*o'larmon*" kabi hosilalar mavjud.

Shoir she'rlarida kelishik qo'shimchalarini qo'llash jarayonida tarixiy variantlarini faol qo'llaydi. Ayniqsa, *-ni* tushum kelishigi qo'shimchasini *-n* va *-in* shakllarida juda faol qo'llaydi, bu she'rga poetik "rang" beradi. "*Kunduzin boshlar*", "*xayol libosin*", "*elning xotin xalojin*", "*qoqib qanot-qulochin*", "*ariqlarning nag'masin*", "*besh yillik so'zin*", "*so'mas qudratin*", "*berganin*", "*terganin*" kabi shakllar ham qofiya, ham badiiylik kasb etib misraning ritmi va ohangiga ta'sir qiladi.

Adib she'rlarida tilning obrazli va ekspressiv vositalarini ta'minlaydigan, matnni lingvistik tahlil qilish orqali uning lingvopoetik xususiyatlarini aks ettirishga xizmat qiladigan lingvistik vositalar rang-barangdir. Maqsud Shayxzoda she'rlarida eng ko'p qo'llagan badiiy tasvir vositalaridan biri bu – takrorlar ekanligi aniqlangan. Takrorlarni qo'llash usuli boshqa shoirlardan farq qilishi taqqoslandi. Takrorlanuvchi so'z misraning turli qismida, turli shaklda, ya'ni bir va bir necha so'zdan iborat bo'ladi. Bundan tashqari, takrorlarning strukturasi ma'lum maqsad asosida shakllantirilganligi ma'lum bo'ldi. Shoir yordamchi so'zlarni takror qo'llash orqali ham ma'no kuchaytirishga, uslubiy vazifasini yanada kuchaytirishga erishgan.

Birinchi bobning uchinchi fasli "*Maqsud Shayxzoda she'rlarining estetik ta'sirini shakllantirishda sintaktik vositalarning o'rni*" deb nomlanadi. Maqsud Shayxzoda sintaktik vositalarni alohida lingvopoetik maqsadda qo'llagan. Adib she'rlarining estetik ta'siri shakllanishida sintaktik vositalarning o'rni va ahamiyati, jumladan, *takrorlar*, *sintaktik uyg'unlik*, *inversiya*, *sintaktik parallelizmlar*, *sintaktik qo'shma gaplar* kabi vositalarning poetik ta'siri va ularning ritm-intonatsiya bilan aloqasi tahlil qilingan. Ma'lumki, she'riyatda shakl mazmunga, mazmun esa shaklga bog'liq o'rinlar ko'p uchraydi. Ushbu sintaktik tuzilish she'rning ma'nosi, ohangi, ritmi, obrazlilik va estetik ta'sirini shakllantirishda bevosita ishtirok etadi. Bunda *sintaktik gradatsiya*, *sintaktik sinonimiya*, *bog'lovchilarning maxsus qo'llanishi*, *antiteza*, *monolog*, *sukut*, *inversiya*, *takroriy gaplar*, *ritorik so'roq*, *uslubiy figuralar* fikrning o'ta ta'sirchan

ifodalanishiga xizmat qilgan. Bunday she'riy ifodalarni yuzaga keltirishda gap va uning turlaridagi sintaktik vazifalar muhim rol o'ynaydi. Ayniqsa, she'rlarda sodda gaplarning qanday qo'llanilishi, ularning qisqaligi, aniqligi, dinamikligi she'rga turli ekspressiv vazifa bag'ishlaydi. Sodda gaplarning ham sintaktik tuzilishi va turli ko'rinishlari mavjud, ularning barchasi shoir she'rlarida faol tarzda namoyon bo'lishi, ijodining serqirraligidan hamda sintaktik xususiyatlarning turlari ma'lum poetik vazifa bajarishga hissa qo'shgan. Shoirning she'rlarida *takrorlar*, *inversiya*, *sintaktik parallelizmlar*, *qo'shma gaplar* kabi sintaktik vositalar she'riy ohangni yaratishda, obrazlarni jonlantirish va kuchli estetik ta'sir hosil qilishda muhim rol o'ynagan. Uning she'rlarida sintaktik vositalar lirik qahramonning ichki dunyosi, his-tuyg'ularini ifodalashda, she'riy vizual obrazlarni yaratish uchun keng qo'llanilgan.

Maqsud Shayxzoda she'rlarida *fonetik takrorlar*, *leksik takrorlar*, *sintaktik takrorlar* matnning ritmik qurilishini yuzaga keltirgan, she'riy ekspressivlikni oshirishga asos bo'lgan. Maqsud Shayxzoda she'riyatida *sintaktik parallelizm* juda ko'p uchraydi. Sintaktik parallelizmlar she'riy ohangni yaratishda, lirik qahramonning his-tuyg'ularini ifodalashda, poetik tasvirlarni kuchaytirish uchun xizmat qilgan.

Shoirning she'rlarida qo'llangan takrorlar, sintaktik uyg'unlik, inversiya, sintaktik parallelizmlar, sintaktik qo'shma gaplar kabi vositalar she'riy ohangni yaratish, badiiy obrazlarni kuchaytirish, lirik qahramonning ichki dunyosini ifodalash, emotsional-ekspressiv ta'sirni oshirishda muhim rol o'ynagan.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi "**Maqsud Shayxzodaning sinonimlardan foydalanish mahorati**" mavzusida bo'lib, mazkur bob uch fasldan iborat. Dastlabki fasl "*Adib she'riyatida qo'llangan sinonimlarning funksional vazifasi*" deb nomlangan. Leksik sathda sinonimlarning xususiyatlarini mukammal o'rganish, matnda ulardan unimli foydalanib badiiy asarning lingvopoetik xususiyatini shakllantirish muhim jarayondir. Adib asarlarida sinonimlarning funksional vazifasi she'rning intonatsiyasi, ma'nosi va badiiy ifodasiga sezilarli ta'sir qilgan. Adib she'riyatida leksik, kontekstual, morfemik hamda ma'noviy sinonimlar she'rlarining lingvopoetik xususiyatini ta'minlagan.

Adib she'riyatida qo'llangan sinonimlarning funksional vazifasidan yana biri badiiy va stilistik ta'sir etishdan iborat. Bunda sinonimlar badiiy san'at vositalaridan, masalan, metaforalarni qo'llash orqali namoyon bo'lgan. Metafora bugungi zamonaviy tilshunoslikda yangicha qarash va ta'riflarga asoslanib leksik hodisa emas, konseptual hodisa sifatida baholanmoqda. Adib asarlaridagi metafora mavhum tushunchalarni anglashga va ular ustida mulohaza yuritishga yordam beradigan muhim mexanizmdir, u tabiatan lisoniy emas, balki konseptual hodisadir, metaforik ma'no nometforik ma'noga tayangan, nazmiy metafora umum metaforik tafakkurning kengayishi va individuallashuvi mahsuli hisoblanadi. "Metafora tilning rivojlanishida, uning ifoda imkoniyatlarining kengayishida muhim unsur. Aynan metafora ko'plab lisoniy-nutqiy jarayonlar – sinonimik vositalarning shakllanishi va rivojlanishi, yangi ma'no va bo'yoqlarning

paydo bo'lishi, polisemiyaning vujudga kelishi, emotsional-ekspressiv leksikaning boyishiga xizmat qiladi⁷". Shu bilan bir qatorda, metafora she'riyatda lingvopoetik xususiyatni ta'minlaydigan eng faol leksik vositadir. Shu boisdan metafora va sinonimlarni "she'riy matn"ni shakllantirishning asosiy vositalaridan biri sifatida baholash mumkin. Ular she'rning o'ziga xos pafosini shakllantirishga hamda she'riy matnning badiiyatini shakllantirishga yordam bergan.

Badiiy uslubda ekspressiv va obrazli vositalar, so'zlarning obrazli va ko'chma ma'nolardagi qo'llanishi, stilistik shakllar va usullar keng qo'llaniladi.

Badiiy uslubda tilning kognitiv, kommunikativ va ekspressiv imkoniyatlari sinonimlarda to'liq namoyon bo'lgan. U tilning estetik qudratini ochib beradi va muallifning o'z fikr va tuyg'ularini obrazli va jonli tarzda ifodalashiga imkon yaratadi. Bu uslub orqali kitobxon ma'lum narsa-hodisa haqida badiiy tus bera oladigan va qayta yaratilgan tasavvuri, obrazlari va hissiyotlari bilan boyitiladi va ilhomlanadi.

Leksik birlikning bir sohadan boshqa sohaga o'tkazilishini, ya'ni semantik maydoni o'zgarishida sinonimlarning o'rni muhim. Funksional ko'chirish obyektlarning o'xshash vazifalarini yoki ular o'rtasidagi assotsiatsiyalarni aks ettirib, yangi ma'noning paydo bo'lishiga olib kelgan misralar adib asarlarida ko'p uchragan. Ushbu ko'chirish asosida metafora va metonimiya kabi stilistik figura va usullar hosil bo'lgan. Funksional ko'chirish tilning dinamik va evolyutsion xarakterini aks ettirgan, shuningdek, leksik birlikning semantik evolyutsiyasini o'rganish uchun asosiy vositalardan biri bo'lib xizmat qilgan. Funksional ko'chirish adib asarlarida tilning ifodali va obrazli imkoniyatlarini oshirishga xizmat qilgan. Metaforalar va metonimiyalar badiiy asarlarga obrazli va poetik ravishda ifoda berishga yordam bergan, kitobxonning tasavvuri va fikrlash jarayonlarini faollashtirishga asos bo'lib xizmat qilgan.

Tilning kommunikativ vazifalariga ko'ra ajralib turadigan til uslublarining tizimi va har bir funksional uslub o'ziga xos kommunikativ maqsadga xizmat qilgan hamda unda tilning ekspressiv, obrazli va strukturaviy xususiyatlari o'ziga xos yo'nalishda ishlatilgan.

Mazkur bobning ikkinchi fasli "*Maqsud Shaxzoda she'riyatidagi sinonimlarning pragmatik talqini*" deb nomlanib, pragmatika va pragmatizm g'oyalari zamonaviy pragmatik tadqiqotlar kognitiv tilshunoslik, ta'limiy korpus va hisoblash tilshunosligi bilan chambarchas bog'liq holda yoritilgan. Kompyuter lingvistikasi bilan bog'liq tadqiqotlarning olib borilishi zamon talabi hisoblanadi. Matnni tushunish va generatsiya qilish tizimlarini yaratishda muhim hisoblangan tadqiqotlar bugun zarur. Albatta, ular uchun leksik baza vazifasini yaratish uchun ma'lum vazifalar belgilangan bo'lishi kerak. Masalan, madaniy va kontekstual farqlarni hisobga olgan holda aniq tarjima qilish; badiiy asarlarning lingvopoetik tahlili va turli tahlilini o'tkazish, nutqning ijtimoiy kontekstidagi rolini o'rganishda sotsiolingvistik tadqiqotlarning ahamiyatini belgilash kabi masalalar mavjud.

⁷ Shodmonova D.E. Abdulla Oripov she'riyatining lingvopoetik xususiyatlari (metaforik hodisalar misolida): Fil.fan. fal. dok. diss. avtor. – Toshkent, 2019. – B. 22.

Nutqiy faollik matn yoki nutqni faqat ma'lumot uzatish vositasi emas, balki ma'lum bir harakatni amalga oshirish vositasi sifatida qaraladi. Masalan, Maqsud Shayxzodaning she'rlarida *tinglovchiga so'roq, hayrat, norozilik, ishonmaslik, achinish, iymanish, tejamkorlik* ma'nolari pragmatik talqinda tahlil qilinadi. Pragmatik talqinda matn konteksti, ya'ni nutq vaziyati, tinglovchilarning bilimlari, ma'naviy va madaniy qadriyatlari ham hisobga olinadi. Pragmatik talqinda matnda to'g'ridan to'g'ri aytilmagan, lekin tinglovchi tomonidan kontekst asosida tushunilgan ma'nolar (implikatsiya) muhim rol o'ynaydi. Tinglovchi matndan olingan ma'lumotlarni o'z bilimlari bilan bog'lab, qo'shimcha ma'nolarni chiqaradi (inferensiya). Pragmatik talqinlar faqat ma'lumotlar olish va berishgagina emas, qolaversa, muallifning niyatini ham aks ettirishga, muallifning nutq orqali nimaga erishishni maqsad qilgani tahlil qilinadi. Bu muallifning kontekstiga va maqsadlariga qarab matnning ma'nosini to'liq tushunishga yordam beradi.

Maqsud Shayxzoda she'riyatidagi sinonimlarning o'z o'zni, vazifasi, badiiy maqsadi, qolaversa, so'zlarning sinonimik munosabatlarini nafaqat ularning leksik-semantik ma'nolarini, balki ularning nutqdagi qo'llanilish konteksti, muallifning maqsadi, niyati va kitobxon bilan bo'lgan munosabati, ya'ni pragmatik omillari nuqtayi nazaridan tahlil qilish lingvopoetik xususiyatlarini yanada boyitadi.

Sinonimlarning pragmatik talqinida turli jarayonlar va nutqiy xosliklar yuzaga keladi. Adib she'rlarida *joy, vaqt, mafkura, ijtimoiy muhit, ruhiy holat va tabiat tasvirlari pragmatik talqin* asosida gavdalanadi. Shoir she'rlari ham turli kontekstlarda bir-birini to'ldiradigan pragmatik funksiyani bajargan. Sinonimlarning pragmatik xususiyatlari ularning lingvopoetik xususiyatlari bilan chambarchas bog'liq. Pragmatika tilning amaliy qo'llanilishini, ya'ni til birliklarining muloqot jarayonidagi rolini o'rganadi. Lingvopoetika esa badiiy matnda til vositalarining estetik funksiyasini tadqiq etadi. Sinonimlar esa aynan shu ikki sohada o'ziga xos imkoniyatlarga ega.

Sinonimlarning she'rga qo'shadigan emotsional ta'sirini tahlil qilish bu kitobxonning va ijodkorning shaxs xarakterlarini ham ochishga xizmat qiladi.

Ikkinchi bobning uchinchi fasli "*Shoir she'riyatidagi kontekstual sinonimlarning badiiy tasvirni yuzaga keltirishdagi ahamiyati*" deb nomlanadi. Ushbu faslda kontekstual sinonim tilshunoslikda leksik ma'nolarining o'xshashligi, leksema tarkibidagi semalarning aynan yoki qisman o'xshashligi, yaqinligi faqatgina ma'lum bir kontekstda yoki nutq vaziyatida namoyon bo'ladigan shakllarni yoritgan. Kontekstual sinonimiya – lisoniy birlik sifatida o'zaro semantik jihatidan bir xil bo'lmagan semalarning ma'lum kontekst doirasida, ya'ni nutqiy jarayonda sinonimik munosabatga kiritilishi. She'riy misralarda kontekstual sinonimlarning lingvokulturologik xususiyatlarini aniqlash muhim vazifa bajaradi. Nutqdagi ma'no faqatgina so'zlarning leksik ma'nosi bilan cheklanmaydi, balki kontekst va muloqot ishtirokchilarining bilimlari, tushunchalari, fikrlashlari ham muhim ahamiyatga ega. Sababi har qanday tanlangan so'z kontekstual sinonim bo'lavermaydi, bunga ma'lum asoslar talab qilinadi. Masalan, kontekstual

sinonimlarni tahlil qilishda muhim ahamiyatga ega bo'lgan qoidadan biri "shartli bog'liqlik" hisoblanadi. Har bir nutqiy sinonim ma'lum bir kontekstda, ma'lum bir niyat bilan amalga oshiriladi va bu niyat badiiy "shakl" berishga, kitobxonning ko'z o'ngida voqelikni gavdalantirishga (dengizning moviy ranggi va musaffoligi) asos bo'ladi. Bu kabi holatlar ijodkor asarlarida ko'plab kuzatilgan. Sinonimlar she'riyat tilining eng ifodali va obrazli shakli bo'lib, unda tilning barcha imkoniyatlari, jumladan, sinonimiyaning badiiy maqsadlarda ishlatilishi namoyon bo'lgan.

Lingvopoetik tahlil nuqtayi nazaridan, sinonimlarning badiiy funksiyasi, ayniqsa, kontekstual sinonimlarning roli, shoirning mahoratini va she'riy obrazni yaratishdagi mahoratini aniqlashda muhim ahamiyatga ega. Shoir she'riyatidagi kontekstual sinonimlar badiiy tasvirni yaratishda muhim rol o'ynagan. Ular she'rga obrazlilik, emotsionallik, stilistik xususiyatlar va semantik boylik qo'shgan.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi "**Maqsud Shayxzoda she'riyatidagi sinonimlarning badiylikni ta'minlashdagi ahamiyati**" deb nomlanib, uch fasldan iborat. Dastlabki fasl "*She'riyatda emotsional-ekspressivlikni ta'minlashda sinonimlarning vazifasi*" deb nomlanadi. Bunda sinonimlarning asosiy vazifasi – bir xil ma'noni turli leksemalar yordamida emotsional-ekspressiv ma'nolarni yuzaga keltirish ekanligi, she'riyatda sinonimlarni tanlash shoirning badiiy niyatlariga, asarning umumiy ruhiyatiga, mavzusiga, shoirning kayfiyatiga, his-tuyg'ularning kuchi va kuchsizligiga bog'liq ekanligi misollar bilan dalillangan. Badiiy matnlarning lingvistik tahlili jarayonida til vositalarining ekspressiv imkoniyatlarini aniqlash muhim ahamiyat kasb etishi, bu jarayon adabiyotshunoslik va lingvistika usullarini birlashtirishi, turli davr va yo'nalishlarga mansub mualliflarning asarlarini tahlil qilishi she'riy misralar asosida aks ettirilgan.

Maqsud Shayxzodaning ijodidagi emotsional-ekspressivlikni ta'minlashda leksik vositaning o'rni alohida va ularning she'rlaridagi ritm, ohang va individual uslubiy xususiyatlarini, xalq og'zaki ijodiga yaqinligi va turli stilistik vositalardan, jumladan, sinonimlardan foydalanish mahoratini o'rganishda betakror misralari asosiy o'rin tutgan. Ijodkor she'rlarida qiziqarli, go'zal hamda individual so'z qo'llash orqali, o'xshatishlar orqali sinonimlik hodisasi yuzaga kelgan. Sinonimlarning stilistik xususiyatlari badiiy matn uchun eng muhim vazifa bajaradi. Sinonimlarning kontekstdagi o'rnini aniqlash va ularning emotsional-ekspressiv ta'sirini bevosita kontekstga bog'liq so'zlar orqali ifodalash ekspressivlikni ta'minlaydi. Sinonimlar turli kontekstlarda har xil emotsional-ekspressiv xususiyatlarni namoyon etishi mumkin. Shuning uchun she'riyatda sinonimlarni tanlash va joylashtirish alohida diqqatni talab qiladi. She'rda qo'llangan sinonimlarni aniqlash hamda ularning semantik va emotsional farqlarini tahlil qilish badiiy ekspressivlikni yaratadi. Masalan, "Kelajakning savollariga javob" she'rida shoir leksik sinonim o'rnida okkazional sinonimni qo'llab, matnning ekspressiv xususiyatini shakllantirgan. Mazkur okkazional sinonimlar orqali kelajakda xalqning kosmosga chiqishi va u bilan bog'liq

tadqiqotlarni o'tkazishga imkoniyatlarning ko'pligini yuzaga keltirishini shakllantirish maqsadida qo'llangan. "Fazoshumul" so'zi shu ma'noda "shaxsiy so'z qo'llash", "muallif neologizmlari", "okkazonal birliklar" kabi ta'riflar uchun zalvarli misol bo'la oladi:

*Qit'alar o'rtasida qisqarib masofalar.
Ro'znomaga qo'yilar **fazoshumul** vazifalar.
Qo'shnimiz Oy bo'lib qolar,
Yerimizning yettinchi qit'asidek
Jug'rofiya boblarning bittasidek.*

